

## QO‘QON XONI MUHAMMAD OLIMXONNING RAQSU SAMO‘ YIG‘INLARI

**Qorayev Sherxon Po‘latxonovich,**

*Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti dotsenti,  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.*

Qo‘qon xonligini 1801 – 1810 yillarda boshqargan minglar sulolasi vakili Muhammad Olimxon ibn Norbo‘tabiy Farg‘ona o‘lkasining qudratli hukmdorlaridan biri bo‘lgan. Abdurauf Fitratning yozishicha, *“Farg‘onada Olimxon va Umarxonlar zamonida adabiyot yangitdan bosh ko‘tardi. Ayniqsa, Umarxon zamonida saroy atrofida bir ko‘b shoirlar yig‘ildilar. Bularning orasida Fazliy, Hoziq, Xijlatxon kabi san‘atda yuqori darajada turganlari ham bor edi. Umarxon saroyida to‘plangan shoirlarning ko‘brak umrlari bir – birlariga o‘xshatma she‘rlar yozishda o‘tar edi. Bular, ayniqsa, podsho(h) Umarxonning g‘azallariga o‘xshatmalar yozar edilar”*.<sup>1</sup> Binobarin, Umarxon zamonidagi madaniy taraqqiyotga Olimxon zamonida poydevor qo‘yilgan edi.

Olimxon she‘riyatsevar podsholardan bo‘lgan. Badihatani she‘rlar ham aytgan. “Muntaxab at-tavorix”da Muhammadhakimxon to‘ra tog‘asi Olimxon o‘qigan satrlarni ham keltirib o‘tgan: *“Amir Olimxon taqdirining bu o‘yinidan xabar topib, o‘zining o‘ylamasdan bosgan qadamidan pushaymon bo‘ldi va o‘yga cho‘mib, hayronlik ichida ushbu baytni o‘qidi:*

***Har ki befikr va taani amale girad pesh,  
Oxirulamr az on karda pushaymon gardad.***

*(Mazmuni: Kim o‘ylamasdan biror ishga qo‘l ursa, So‘ng bu ishning pushaymonligi olamga sig‘mas).*<sup>2</sup>

Naql qilishlaricha, Olimxon ko‘pincha quyidagi to‘rtlikni o‘qib yurgan:

***Chi sanjad dar niginam shahri Ho‘qand,  
Zi Chinam to Xuroson dar nigin bod.  
Ba yak Turon samandamrochi javlon,  
Maro maydon hama ruyi zamin bod.***

*(Mazmuni: Ho‘qandgina topmas niginimdan omon, Kirgay unga Chindan tortib to Xuroson. Samandimga depsinish yeri emas Turon, Otimga bo‘lg‘usi butun yer yuzi maydon.)*<sup>3</sup>

Ma‘lumotlarga ko‘ra esa, Qo‘qon xoni Muhammad Olimxon saroyda tariqat peshvolari, shayxlar va so‘fiylarni yig‘ib, raqsu samo‘ yig‘inlari o‘tkazishni xush

<sup>1</sup> Fitrat A. Tanlangan asarlar. II jild. Ilmiy asarlar. T.: Ma‘naviyat, 2000.-B.59.

<sup>2</sup> Ko‘rsatilgan asar.-B.310.

<sup>3</sup> Muhammadhakimxon To‘ra. Muntaxab at-tavorix.T.: Yangi asr avlodi, 2010.-B.310.

ko‘rgan. Xonning o‘zi ham bunday majlislarda qatnashib, raqsga tushgan. Mulla Olim Mahdum Hoji “Tarixi Turkiston” asarida yozishicha, “*Xud amir Olimxon suluki jahriyaga doxil va muraxxas va mijoz bo‘lub, har hafta bargohi oliyda hamma mashoyixi jahriyalar kelib, zikr jahr qilar ekanlar. Va pir irodatlari shayx Nosir alayhirrahma ekan, kasbi kamolotni ul janob din hosil qilgan ekan. Zikr jahrga mashg‘ul bo‘lub turgan holatda xud shayx o‘zlari qo‘llarig‘a darra olib, xalqani atrofidin aylanib, ehtiyot qilib, beqoida zokirlarga odob berar ekanlar. Amiri majzub xalqani o‘rtasig‘a kirib, nihoyati majzublik ilan sadri samo‘g‘a mashg‘ul o‘lub, ul xalqada amir faqir arobarlik ilan zikr etur ekanlar*”.<sup>4</sup>

***Oshiqlari o‘ynasa bu xalqaning ichinda,  
Hu-hu teyu jon bersa, bu xalqaning ichinda.  
Ishq o‘tig‘a qoynasa, aqlu hushi o‘ynasa,  
Alloh teyu jon bersa, bu xalqaning ichinda.  
Jomi sharob ichilur, durri guhar sochilur,  
Jonni ko‘zi ochilur, bu xalqaning ichinda.  
Ishq bahrig‘a cho‘msam men, nola – faryod qilsam men.  
“Hu-hu” teyu o‘lsam men, bu xalqaning ichinda.  
Ruhi holat zikrulloh, la ilaha illalloh,  
Ismi a‘zam huvalloh, bu xalqaning ichinda.  
Har kimiga zavq hola, bo‘lsa bo‘lur bu vola,  
Soqiy sunar piyola, bu halqaning ichinda.  
Zokir qullar jam‘ bo‘lub, faryod urub, jon uzub,  
Soqiy yuror o‘rgulub, bu xalqaning ichinda.  
Kuysa – yonsa kul bo‘lur, o‘lsa, uchsa o‘z bo‘lur,  
Kong‘a tushsa, tuz bo‘lur, bu xalqaning ichinda.  
Xizru Ilyos hozir ul, G‘avsu G‘iyos nozir ul,  
Botin ko‘zi zohir ul, bu xalqaning ichinda.  
Toliblarni murshidi Qul Xoja Ahmad deb oydi,  
Bosh o‘ynag‘il sen dedi, bu xalqaning ichinda.***<sup>5</sup>

Manbalarda Olimxon darveshlar xalqasi ichida zikrga tushgani qayd etiladi. Muhammadhakimxon To‘ra “Muntaxab at-tavorix”da yozishicha, “*taqdir taqozosi bilan bir devona bola amir o‘tkazadigan jahr (samo‘ yig‘ini), ya‘ni ovoz chiqarib zikr tushish marosimida har kuni o‘rtaga chiqib olib, og‘zini ko‘pikka to‘ldirganicha faol qatnashib, zikrga jo‘r bo‘lardi. Amir Olimxon uning bu qilig‘idan ajabsinib yurar, anig‘rog‘i, o‘zi aslida bu bola zindiqiy(xudosiz)lardan bittasi bo‘lsa kerak, deb o‘ylar va shuning orqasida “bu ikkiyuzlamachi”ning bildirmay ta‘zirini berish maqsadida,*

<sup>4</sup> Mulla Olim Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston. Nashrga tayyorlovchilar: T.Alimardonov, N. Abdul Hakim. –Qarshi: Nasaf, 1992.-B.25-26.

<sup>5</sup><https://adabiyot.islamonline.uz/uzbek/mumoz/741--asar.html>



tegajog'lik qilgan, masxaralab yurardi. Bir kuni shirali ovozli hofizlarning zikr tushib va ko'plarni jazava tutib, yoqalar yirtilgan, mast tuyadek og'izlari ko'pikka to'lgan, xoh rost, xoh yolg'on har kimning bir chekkaga yiqilib, marosim ahlining hoy – huyi avjiga chiqib, kichik qiyomat qo'pgan, ya'ni jahrning ayni qizigan chog'ida haligi devona bola ham bir holda amir Olimxon oldidan o'tib qoladi. Amir Olimxon bu majnun va telba bolaning yoqasidan mahkam ushlab, haramning dahliziga qarab sudraydi. Dahliz juda ham qop – qorong'u bo'lib, amir shu zim – ziyo zulmatda bolaning boshiga bir necha musht tushiradi. Buni qarangki, devona bolaning yonida pichoqchasi bo'lib, mahsini ichiga qo'ygan ekan. Jinni bola o'sha pichoqchasini olib, amirning qorniga ustma – ust o'n sakkiz marta pichoq sanchadi. Ammo, qazosi yetmagan ekan".<sup>6</sup> Amir Olimxon sog'ayib ketadi.

O'rta asrlarda o'lkamizda kubraviya, yassaviya, mavlaviya, ishqiya kabi ayrim so'fiylik tariqatlarida Qo'qon xonligida Olimxon huzurida o'tkazilgan singari **Raqsu samo' yig'inlari – az-zikr al-jahriya (ovoz chiqarib, zikr tushish) majlislari** o'tkazilgan.<sup>7</sup> Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf ta'biri bilan aytganda, "“Samo'” so'zi tasavvufga xos istilohot bo'lib, zikr va zikrga oid narsalarni eshitishga ishlatiladi. Bunda zikr uchun musiqa, qo'shiq, she'r va boshqa narsalarni eshitish ko'zda tutilgan. Turli omillarga ko'ra, so'fiylar orasida zikrni raqsqa tushib, turib qilish, musiqa ila qilish, turli she'rlarni ohang ila aytish, yosh bolalarni go'zal kiyimlar kiygizib o'rta o'tkazib qo'yib, ado etish kabi g'alati odatlar paydo bo'lgan. Bunga asosan sunniy tasavvufga begona bo'lgan unsurlar sabab bo'lgan".<sup>8</sup> Bir so'z bilan aytganda, bunday yig'inlarda darveshlar raqsqa tushib, musiqa og'ushida zikr aytishgan, turli she'rlarni ohang bilan o'qishgan, qo'shiqlar kuylangan. "Ovoz chiqarib, zikr tushish O'rta Osiyoda ham keng tarqalgan edi. Bunda bir guruh so'fiylar avval davra qurib o'tiradi, bir kishi (qavvol) muayyan iboralarni ma'lum ohangda o'qiydi, unga ayrim musiqa asboblari jo'r bo'ladi; bora-bora kishilar o'rnidan turib, o'ziga xos harakatlar qila boshlaydilar. Zikr vaqtida so'fiy va darveshlar "Alloh hayy" (Alloh tirik), "La ilaha illalloh" (Allohdan o'zga iloh yo'q), "Allohu akbar" (Alloh ulug'), "Alhamdulillah" (Allohgga hamdu sanolar) va boshqa so'zlarni takrorlaydilar. Uzoq vaqt takrorlangan so'zlar, musiqa va raqs natijasida zikr tushayotganlar

<sup>6</sup> Muhammadhakimxon To'ra. Muntaxab –at-tavorix. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.-B.306-307.

<sup>7</sup> Qarang: Qoraev Sh. Samo' yig'inlari // Jahon adabiyoti.-Toshkent, 2020.- № 8. – B.144-147; Qoraev Sh. Tasavvuf shayxlarning raqsu samo' yig'inlari (Alisher Navoiy asarlari asosida) / "International Scientific Conference Modern Scientific challenges and trends" nomli Xalqaro Polsha konferensiyasi materiallari to'plami. Issue 11 (33), Part 1, Warsaw. Poland, Wydawnistwo Naukowe "iScience", November 30 th, 2020.-P. 87-92; Qoraev Sh. Temuriylar davri samo' yig'inlari. // Vestnik Tadjikiskiy pedagogicheskiy instituta.-Pendjikent, 2019.-№2.B. 840-844; Qoraev Sh. Ishq ahllariga ohu vovaylo soldi // "Qashqadaryo", Qarshi, 2020 yil 7 fevral. №010(15650)-son. -B. 4-5; Qoraev Sh. Tasavvuf shayxlarning samo' yig'inlari va Alisher Navoiy (Alisher Navoiy asarlari ma'lumotlari asosida) // "Tarixiy manbashunoslik, tarixnavislik, tarix tadqiqotlari metodlari va metodologiyasining dolzarb masalalari" mavzuidagi Respublika XIII ilmiy-nazariy konferensiyasining ilmiy materiallari. Toshkent, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021 yil.-B. 378-383; Qoraev Sh. Mir Kamoliddin Husayn Gozurgohiy samo' yig'inlari va Alisher Navoiy// "Sanduvoch", Qarshi. 2021 yil 20 avgust. №15(448).-B.4; Qoraev Sh. Ishq ahllariga ohu vovaylo soldi.//<https://www.old.islamonline.uz/index.php/item5-navoiy>.

<sup>8</sup> <https://www.old.islamonline.uz/index.php/dolzarb-mavzu/raddiyalar/item/6664-sufizm>

(“sharobu antahur” dan sarmast bo‘lib) o‘zligini unutadi. Allohdan boshqa hech kim va hech narsani yodiga keltirmay qo‘yadi”.<sup>9</sup>

Muxtasar aytganda, adabiyotshunos Najmiddin Komilovning ta’kidlashicha, tasavvuf o‘z musiqasi, tasviriy san’ati, raqs san’atini ham yaratdi va hatto so‘fiyona teatrlar paydo bo‘ldi. Birgina samo‘ning o‘zida ham she’riyat, ham raqs, ham qo‘shiq, ham musiqa ishtirok etadi. Ko‘pgina samo‘ majlislari teatrlashgan tomoshaga aylanar edi, faqat so‘fiylar o‘zi emas, atrof-javonibdagi kishilar ham bu tomoshalarni yig‘ilishib ko‘rganlar.<sup>10</sup> Samo‘ yig‘inlari esa o‘z navbatida mumtoz adabiyotimiz va san’atimiz taraqqiyotiga xizmat qilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitrat A. Tanlangan asarlar. II jild. Ilmiy asarlar. T.: Ma’naviyat, 2000.-B.59.
2. Muhammadhakimxon To‘ra. Muntaxab at-tavorix.T.: Yangi asr avlodi, 2010.-B.310.
3. Mulla Olim Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston. Nashrga tayyorlovchilar: T.Alimardonov, N. Abdul Hakim. –Qarshi: Nasaf, 1992.-B.25-26.
4. <https://adabiyot.islamonline.uz/uzbek/mumoz/741--asar.html>
5. Qorayev Sh. Samo‘ yig‘inlari // Jahon adabiyoti.-Toshkent, 2020.- № 8. – B.144-147.
6. Qorayev Sh. Tasavvuf shayxlarining raqsu samo‘ yig‘inlari (Alisher Navoiy asarlari asosida)” / “International Scientific Conference Modern Scientific challenges and trends” nomli Xalqaro Polsha konferensiyasi materiallari to‘plami. Issue 11 (33), Part 1, Warsaw. Poland, Wydawnistwo Naukowe “iScience”, November 30 th, 2020.-P. 87-92.
7. Qorayev Sh. Temuriylar davri samo‘ yig‘inlari. // Vestnik Tadjikiskiy pedagogicheskiy instituta.-Pendjikent, 2019.-№2.B. 840-844.
8. Qorayev Sh. Ishq ahllariga ohu vovaylo soldi // “Qashqadaryo”, Qarshi, 2020 yil 7 fevral. №010(15650)-son. -B. 4-5.
9. Qorayev Sh. Tasavvuf shayxlarining samo‘ yig‘inlari va Alisher Navoiy (Alisher Navoiy asarlari ma’lumotlari asosida) /“Tarixiy manbashunoslik, tarixnavislik, tarix tadqiqotlari metodlari va metodologiyasining dolzarb masalalari” mavzuidagi Respublika XIII ilmiy-nazariy konferensiyasining ilmiy materiallari. Toshkent, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021 yil.-B. 378-383.
10. Qorayev Sh. Mir Kamoliddin Husayn Gozurgohiy samo‘ yig‘inlari va Alisher Navoiy// “Sanduvoch”, Qarshi. 2021 yil 20 avgust. №15(448).-B.4.
11. Qorayev Sh. Ishq ahllariga ohu vovaylo soldi. //https:// www. old. islamonline.uz/index.php/item5-navoiy.

<sup>9</sup> Usmonov I. Tasavvuf. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. T.: Toshkent islom universiteti NMB, 2012.-B.145..

<sup>10</sup> Komilov N. “Tasavvuf”. Birinchi kitob. T. Yozuvchi, 1996.—B. 156.

12. <https://ww.old.islamonline.uz/index.php/dolzarb-mavzu/raddiyalar/item/6664-sufizm>

13. Usmonov I. Tasavvuf. T.: Toshkent islom universiteti NMB, 2012.-B.145..

14. Komilov N. “Tasavvuf”. Birinchi kitob. T. Yozuvchi, 1996.—B. 156.

